

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.F.01.05 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

GAFUROV BAXROMJON ADXAMOVICH

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING IJTIMOIIY-SIYOSIY VA
FALSAFIY QARASHLARI**

09.00.03 – Falsafa tarixi

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on philosophical sciences**

Gafurov Baxromjon Adxamovich

Zahiriddin Muhammad Boburning ijtimoiy-siyosiy va falsafiy qarashlari.....5

Гафуров Бахромжон Адхамович

Социально-политические и философские воззрения Захириддина Мухаммеда Бабура.....22

Bakhromjon Adkhamovich Gafurov

Socio-political and philosophical views of Zahiriddin Muhammad Bobur.....43

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....50

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.F.01.05 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

GAFUROV BAXROMJON ADXAMOVICH

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING IJTIMOIIY-SIYOSIY VA
FALSAFIY QARASHLARI**

09.00.03 – Falsafa tarixi

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiyasi komissiyasida B2023.3.PhD/Fal1028 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Guliston davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi ik-falsafa@nuu.uz va “Ziyonet” axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Turayev Bahtiyor Omonovich
falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Ruzmatova Gulnoz Miraxrarovna
falsafa fanlari doktori, professor

Zohidov Abduqodir
falsafa fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.F.01.05. raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 12-iyun soat 14.00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Talabalar shaharchasi, Yoshlar ittifoqi markazi 1-qavat). Tel: (99871) 246-02-24; faks: (99871) 246-02-24; e-mail: nauka@nuu.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (85-raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko‘chasi, 4-uy, O‘zbekiston Milliy universiteti Ma’muriy binosi, 2-qavat, 4-xona. Tel: (99871) 236-46-55; faks: (99871) 246-02-24.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 29-may kuni tarqatildi.

(2025-yil «29» maydagi 9- raqamli reestr bayonnomasi).

I.S.Saifnazarov

ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

G.M.Shadimetova

ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kotibi, falsafa doktori (PhD), dotsent

O‘.G‘.Tilavov

ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, falsafa fanlari
doktori (DSc), dotsent

KIRISH (FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI ANNOTATSIYASI)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ro'y berayotgan ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-mafkuraviy, tarixiy, iqtisodiy, diniy-axloqiy jarayonlar, barcha xalqlar taraqqiyotida ma'naviyat, ma'rifat, milliy o'zlikni anglash muammolari hamda ularning barcha uchun maqbul bo'lgan ijobiy yechimlarini topish masalalari davrimizning eng dolzarb muammolaridan biriga aylanib bormoqda. Bu jihatdan o'tmish mutafakkirlarimiz qoldirgan boy ma'naviy meros, ularning jahonshumul bunyodkor va ezgu g'oyalaridan bugungi kun talablari darajasida foydalanishga katta ehtiyoj tug'ilmoqda. Atoqli davlat arbobi, sarkarda va mutafakkir Zahiriddin Muhammad Bobur ana shunday ulug', jahon miqyosida e'tiborli, nafaqat xalqimiz, balki dunyo xalqlari taraqqiyotida o'z o'rnini va ahamiyatiga ega bo'lgan, mintaqamiz xalqlari ma'naviy yuksalishiga, o'zbek milliy davlatchiligi rivojiga katta xissa qo'shgan ulug' siymolarimizdan biridir. Uning butun hayoti, ayniqsa, ijtimoiy-siyosiy faoliyati o'z davri uchungina emas, balki keyingi davrlar, shu jumladan, hozirgi davr uchun ham davlat boshqaruvi ishlarida hamon dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelmoqda.

Dunyoning bir qancha davlatlarida, jumladan, AQSh, Gollandiya, Angliya, Fransiya kabi taraqqiy etgan davlatlarda, shu bilan birga, Sharq mamlakatlarida ham Mirzo Boburning boy ma'naviy merosini o'rganishga bo'lgan intilish uning o'z zamonasida, undan keyingi davrlarda ham doimo katta bo'lgan. Shu kungacha uning asarlari, ayniqsa, shoh asari sanalmish "Boburnoma" jahonning bir qancha tillariga tarjima qilingan va nashr etilgan. Biroq mazkur tarjima va tadqiqotlar asosan tilshunoslik, tarixiy, jug'rofiy, manbashunoslik, adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan amalga oshirilgan. Shu bilan birga, yana alohida ta'kidlab o'tish lozimki, Mirzo Boburning harbiy taktika va strategiyasi, davlat boshqaruvi ishlari, tilshunoslik va adabiyotshunoslikka oid qarashlari, shuningdek, huquqiy, axloqiy, estetik qarashlari ko'plab boburshunos olimlar tomonidan tadqiq etilgan va hozirgacha o'rganilib kelinmoqda. Lekin Mirzo Boburning falsafiy va ijtimoiy-siyosiy qarashlari shu paytgacha falsafa tarixi nuqtayi nazaridan maxsus o'rganilmagan edi.

O'zbekistonning mustaqil taraqqiyoti milliy-ma'naviy hamda ijtimoiy-siyosiy qadriyatlarimizni qaytadan tiklash, hayotga qaytarish imkonini berdi. Bu boradagi olamshumul, xayrli va savobli ishlar birinchi Prezidentimiz I.Karimov tomonidan boshlab berildi hamda amaldagi Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan o'ta faollik bilan davom ettirilmoqda. O'zbekiston o'zining davlat mustaqilligiga erishganidan keyin yurtimizdan yetishib chiqqan ko'plab allomalarimizning boy ma'naviy merosini o'rganish, ularning asarlarini tadqiq etish hamda xalqimizga yetkazish borasida muhtaram Prezidentimiz va hukumatimiz tomonidan tahsinga sazovor ishlar amalga oshirildi. Shuningdek, "Ijtimoiy-gumanitar fanlar-tarix, arxeologiya, sharqshunoslik, O'zbekiston xalqlari madaniy merosi va boshqa

sohalarda ham salmoqli natijalarga erishilmoqda”¹. Hozirgi vaqtda o‘zbek falsafasi va milliy davlatchiligini yanada mustahkamlash hamda kamol toptirish, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Abu Mansur al-Moturudiy, Burxoniddin Marg‘inoniy, Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband, Mirzo Bobur kabi mutafakkirlarning ilmiy merosini yangilanayotgan O‘zbekistonda qaytadan tiklab, zamonaviy ilmiy tamoyillar va milliy qadriyatlarimiz asosida rivojlantirish, ularning tarixiy merosini o‘rganish, tadqiq etish va umumlashtirish, tegishli xulosalar berish kabi dolzarb masalalar kun tartibida turibdi. Shu nuqtayi nazardan xalqimiz tarixida, mamlakat rivojida, milliy ma’naviyatimiz va davlatchiligimiz tarixida o‘zining muhim o‘rni hamda ahamiyatiga ega bo‘lgan Mirzo Boburning ijtimoiy-siyosiy va falsafiy ta’limotini tadqiq etish, o‘rganish hamda keng jamoatchilik e’tiboriga havola qilish zarurati mavjuddir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 15-maydagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 5-iyuldagi PF-5106-son “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”, 2017-yil 28-iyuldagi PQ-3160-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”, 2019-yil 8-apreldagi F-5465-son “O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g‘oyani rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoyishi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2023-yil 25-yanvardagi PQ-20-son “Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 540 yilligini nishonlash bo‘yicha” qarorlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu ilmiy tadqiqot ishi ma’lum ma’noda xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Sharqda Mirzo Boburning avlodlarga qoldirgan boy ma’naviy merosini o‘rganish, tadqiq qilish u yashagan davrlardan boshlangan, yangi davrda esa ham Sharqda, ham G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida juda keng miqyosda zamonaviy ilmiy usullar bilan davom etdi va hozirgi davrda ham hamon davom etmoqda.

Chet el olimlaridan U.Erskin, A.Habibiy, Yu.Bayur, R.Arat, K.Eraslan, M.F.Kupruluzoda, Mano Eyji, A.Togan va boshqa hassos olimlarning tadqiqotlari boburshunoslikka salmoqli hissa bo‘lib qo‘shildi. Yuqorida nomlari qayd etilgan olimlar, asosan, Markaziy Osiyoda XV-XVI asrlardagi tarixiy shart-sharoitlar, mavjud madaniy aloqalar, davlatchilik masalalari, xalqaro munosabatlar, elchilik

¹ Мирзиёев Ш. М. Илм-фан ютуқлари Ватанимиз равнақига хизмат қилсин. Мамлакатимиз илмий жамоатчилиги вакиллари билан учрашувдаги нутқ. 2016-йил 30-декабрь // Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. - Тошкент: Ўзбекистон, 2017. - Б. 169.

aloqalari, ichki va tashqi siyosat masalalarini o'rganganlar¹. Shuningdek, Mirzo Bobur merosining manbaashunoslik jihatlariga asosiy e'tiborlarini qaratganlar.

MDH davlatlarida K.Ashrafyan, N.Karieva, A.Muxtorov, I.Stebleva, A.Sherbak, A.Stolyarov² kabi tadqiqotchilar, asosan, Mirzo Boburning adabiyotshunoslik, madaniy, axloqiy, estetik, diniy qarashlari manbaalarini tadqiq etganlar. Biz yuqorida keltirib o'tgan olimlar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar bizning dissertatsion tadqiqotimiz uchun noyob manbalardan bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekistonda Mirzo Boburning boy ma'naviy merosini tadqiq etishda ilmiy-tahliliy jihatdan S.Azimjonova, A.Qayumov³, manbaashunoslik nuqtayi nazaridan esa P.Shamsiev, M.Sale, M.Hayrullaev, H.Qudratullaev⁴ kabi qator olimlarning ishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Sh.Bobojonova, E.Satilkanova, O.Xusanboyev, D.Jo'rayevalarning⁵ etika, estetika va yuridik yo'nalishlardagi ilmiy izlanishlari ulug' mutafakkirning ilmiy merosi xaqida yaxshigina ma'lumot beruvchi ilmiy tadqiqot ishlari bo'ldi. Yuqoridagilarga qaramay, Bobur mavzusini yanada chuqur, zamonaviy va maxsus ijtimoiy-siyosiy yo'nalishda tadqiq etish, Mirzo Boburning ijtimoiy-siyosiy, falsafiy qarashlarini o'rganish bugungi kunda dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan OTM ning ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Ilmiy tadqiqot Guliston davlat universiteti "Ijtimoiy fanlar" kafedrasining "Markaziy Osiyo mutafakkirlari ijodida milliy g'oya va ma'naviyat masalalari" ilmiy mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Mirzo Boburning boy va serqirra ma'naviy me'rosini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilish, uni nazariy-metodologik umumlashtirgan holda mutafakkir ijodida ilgari surilgan inson ijtimoiy faoliyatining qator sohalari bilan bog'liq g'oyalaridan yangilanayotgan O'zbekistondagi zamonaviy, ijtimoiy-siyosiy, diniy-falsafiy, ma'naviy-mafkuraviy jarayonlarni mustahkamlashda amaliy

¹ Эрскин У. Бобур Ҳиндистонда. - Т.: «Чўлпон», 1993; Ҳабибий Абдулхай. Бобуршоҳ. - Тоиф. 1976. 1-фасл; Bayur Y.H. Temur un Ogullari ve Babur hakkinda tarixi Ozet - Gazi Zahiriddin Muhammad Babur ve vekayi Babur un hatirati Cilt I - II. 1 - baski: - Istanbul, 1943. 2-baski. - Ankara; Arat R. Boburnama. Istanbul. 1943; Eraslan K. Bobur Imperatorlugu//Buyuk Turk Klassikleri. III cilt. Oluken-Sugut. - Istanbul. 1986; Купрулузода М.Ф. Подшоҳ Бобуршоҳ «Девони» дан парчалар. - Истанбул. 1913. I жилд; Mano Eiji. Zahir al-din Muhammad Babur. Baburnama (Vakai). Concordance and Classified Indexes. Kyoto Shyokado. 1998.Vv. I-II. 1995-1996; Togan A.3. B. Bugunku Turkili-Turkistan ve yakin tarihi. - Istanbul: Enderun Kitab Evi, 1981. 2-baski.

² Ашрафян К. Делийский султанат. - Москва, «Наука», 1978; Кариева Н. Представители культуры Средней Азии и Индии во второй четверти XVI века // Из истории культурных связей народов Средней Азии и Индии. - Ташкент, «Фан», 1986; Мухторов А. Дурдонахои маданияти Тожикистон дар ганжинаи Ҳиндустон. - Душанбе, «Ирфон», 1984; Стеблева И.В. Семантика газалей Бабура. - Москва, «Наука», 1982; Шербак А.М. Сочинение Бабура об Арузе // Народы Азии и Африки. - Москва, 1969; Столяров А.А. Политические центры и культурные регионы в ранне средневековой северной Индии. - Москва, «Наука», 1976.

³ Азимжонов С., Қаюмов А. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Асарлар. 3 жилдлик. - Тошкент, «Фан», 1965-1966.

⁴ Шамсиев П., Мирзаев С., Пўлатов А. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Асарлар. 3 жилдлик. II-III жилдлар. - Тошкент, «Фан», 1956-1960; Хасан С., Қаюмов А. Бобур. 1 кн.; Салъе М., Азимжонов С., Хайруллаев М. 2 кн. - Ташкент, 1982; Қудратуллаев Ҳ. Бобурнинг давлатчилиқ сиёсати ва дипломатияси. - Тошкент, «Шарқ», 2011.

⁵ Бобожонова Ш. Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг ижтимоий-ахлоқий қарашлари. Фалсафа фанлари ном. дисс. - Тошкент, 2002; Сатылканова Э. Философское своеобразие воплощения трагического в «Бабур-наме». Дисс....доктора философии. - Москва, 2003; Хусанбоев О. Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг сиёсий ва ҳуқуқий қарашлари. Юридик фанлари ном. дисс. - Тошкент, 2006. Jo'raeva D. Zahiriddin Muhammad Babur ma'naviy merosining yoshlar axloqiy-estetik tafakkurini shakllantirishdagi o'rni. - Samarqand, 2024.

foydalanishning usullari, yo‘l-yo‘riqlari va vositalarini aniqlab ko‘rsatib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Mirzo Bobur yashagan va siyosiy, davlatchilik faoliyati olib borgan Markaziy Osiyo, Turkiston, Afg‘oniston hamda Shimoliy Hindistondagi XV asr oxiri va XVI asrning birinchi choragidagi tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, o‘zaro ta’sir va aloqalarini falsafiy-tarixiy reduksiya (moslashtirish, integratsiya ma’nosida) qilish;

Mirzo Bobur ilmiy-falsafiy, badiy-axloqiy, ijtimoiy-siyosiy faoliyati rivojlanishining asosiy bosqichlarini tahlil etish, Movaraunnahr, Turkistonning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotida Temuriylar markazlashgan davlatining Shayboniylar markazlashgan davlatiga o‘tib o‘tishining obyektiv tarixiy, siyosiy shart-sharoitlari, sabablari va subyektiv omillarini ko‘rsatib berish;

Mirzo Bobur dunyoqarashi, ijtimoiy-siyosiy qarashlari, davlat tuzish, idora va boshqaruv usullarining O‘zbekistonda hamda xorijda falsafiy-tarixiy o‘rganish darajasi va asosiy muammolarini asoslash;

Mirzo Boburning falsafiy, axloqiy, diniy, badiy-estetik va siyosiy qarashlaridan hozirgi davrda o‘tib kelayotgan yosh avlodni millatlararo totuvlik, diniy sabrtoqatlilik, vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalashda foydalanishning usul, yo‘l-yo‘riqlari va vositalarini amaliy takliflar sifatida ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Mirzo Boburning hayot yo‘li, faoliyati, ilmiy merosi, ijtimoiy-siyosiy, falsafiy, huquqiy, diniy-tasavvufiy, ma’naviy-axloqiy qarashlari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini Mirzo Boburning ijtimoiy-siyosiy va falsafiy qarashlarining o‘ziga xos jihatlari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada umumlashtirish, tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, analiz va sintez usullari, tarixiylik, mantiqiylik hamda vorisiylik kabi falsafiy tamoyillardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Zahiriddin Muhammad Boburning falsafiy ontologiyasi va naturfalsafiy qarashlarini tizimli o‘rganish natijasida, uning borliq, olam, tabiat, inson va koinot haqidagi ilmiy-falsafiy mushohadalarining XV-XVI asrlar Sharq falsafiy tafakkuri rivojidagi o‘rni hamda ahamiyati aniqlanib “Boburnoma” va boshqa asarlaridagi ilmiy qarashlar, geografik, kosmologik tasavvurlarining falsafiy-metodologik asoslari ochib berilgan;

Zahiriddin Muhammad Boburning markazlashgan davlat konsepsiyasining asosiy mezonlari: kuchli hokimiyat, ijtimoiy adolat, shaharsozlik, xususiy mulk dahlsizligi, fuqaro manfaatlarini himoya qilish, milliy taraqqiyot, madaniy yuksalish va ma’rifatparvarlik g‘oyalarining falsafiy-konseptual jihatlari ochib berilib, tarixiy-siyosiy va madaniy-ma’rifiy ahamiyati yuzasidan mualliflik yondashuvi ishlab chiqilgan;

“Boburnoma” asarining aksiologik qirralari tizimli tahlili asosida diniy va dunyoviy bilimlarni o‘zaro uyg‘unlashtirish orqali yaratilgan noyob falsafiy sintezi, uning diniy bag‘rikenglik, madaniyat va dinlarning o‘zaro muloqoti,

hamjihatlik g'oyalarining Sharq falsafasidagi o'rni hamda zamonaviy ijtimoiy-falsafiy dunyoqarash rivojidagi ahamiyati ochib berilgan;

Zahiriddin Muhammad Boburning badiiy-estetik qarashlari va axloqiy ta'limotida antropotsentrik yondashuv ustovorligi aniqlanib, inson hayoti, erkinligi, baxt-saodati, ma'naviyati, axloqi va ma'rifati haqidagi qarashlarining ma'naviy qadriyatlar tizimi evolyutsiyasidagi ahamiyati hamda uning gumanistik-ma'rifiy g'oyalarining Sharq va G'arb madaniyatlari muloqotidagi germeneytik vazifasi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Mirzo Boburning olam va odam, davlat va jamiyat haqidagi g'oyalari hamda falsafiy-axloqiy va diniy-irfoniy merosidan falsafa, axloq, siyosatshunoslik, dinshunoslik, ma'naviyatshunoslik, estetika kabi fanlarni o'qitish jarayonida foydalanish bo'yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqilgan;

Mirzo Boburning asarlaridagi shaxs ma'naviy kamolotiga oid g'oyalarning hozirgi zamon yoshlari dunyoqarashidagi ahamiyati asoslangan va ulardan ma'naviy-ma'rifiy faoliyat tizimida foydalanishning o'ziga xos yo'l-yo'riqlari hamda usullari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda falsafiy-tarixiy tahlil metodologiyasi, tasvirlash, tasniflash, statistik tahlilning aniq va samarali metodlari qo'llanilgani, nazariy xulosa va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilgani hamda olingan natijalarning tegishli vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining *ilmiy ahamiyati* tadqiqotda o'rganilgan va umumlashtirilib berilgan xulosa hamda yechimlardan Mirzo Bobur va u yashagan davrdagi ijtimoiy-siyosiy hayot sharoitlarini tadqiq etishda hamda "Falsafa", "Falsafa tarixi", "Ijtimoiy falsafa", "Etika", "Estetika", "Tarix" kabi ixtisosliklar bo'yicha o'tkaziladigan tadqiqotlarda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining *amaliy ahamiyati* Mirzo Bobur asarlarida ilgari surilgan falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, diniy-axloqiy, mafkuraviy, huquqiy, tasavvufiy g'oyalar, o'sib kelayotgan yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, vatanparvarlik, millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik kabi ezgu g'oyalar ruhida tarbiyalash ishiga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mirzo Boburning ijtimoiy-siyosiy va falsafiy qarashlari mohiyatini ochib berish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

Mirzo Boburning falsafiy ontologiyasi va naturfalsafiy qarashlarini tizimli o'rganish natijasida, uning borliq, olam, tabiat, inson va koinot haqidagi ilmiy-falsafiy mushohadalarining XV-XVI asrlar Sharq falsafiy tafakkuri rivojidagi o'rni hamda ahamiyati aniqlanib "Boburnoma" va boshqa asarlaridagi ilmiy qarashlar, geografik, kosmologik tasavvurlarining falsafiy-metodologik asoslari ochib berilganligiga oid xulosalardan O'zbekiston Respublikasi madaniy meros agentligi tomonidan jamoatchilik muhokamalari va jamoatchilik muloqoti tadbirlarini o'tkazish hamda yakunlari bo'yicha taklif, tavsiyalarni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi madaniy meros agentligining 2023-yil 21-

noyabrdagi 0405//4278-sonli ma'lumotnomasi). Natijada jamoatchilik muhokamalari va jamoatchilik muloqoti tadbirlarining mazmun-mohiyati sifat jihatidan yaxshilanib, sayqallashuviga erishilgan va Mirzo Bobur falsafiy, ijtimoiy-siyosiy merosining hozirgi vaqtgacha o'rganilmagan jihatlarini keng xalq ommasi orasida yoyilishiga xizmat qilgan;

jumladan, Mirzo Boburning markazlashgan davlat kontseptsiyasining asosiy mezonlari: kuchli hokimiyat, ijtimoiy adolat, shaharsozlik, xususiy mulk dahlsizligi, fuqaro manfaatlarini himoya qilish, milliy taraqqiyot, madaniy yuksalish va ma'rifatparvarlik g'oyalarining falsafiy-konseptual jihatlarini ochib berilib, tarixiy-siyosiy va madaniy-ma'rifiy ahamiyati yuzasidan mualliflik yondashuvi ishlab chiqilganligiga oid xulosa hamda amaliy takliflardan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi senatining axborot siyosati va davlat organlarida ochiqlikni ta'minlash masalalari qo'mitasi faoliyatida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi senatining axborot siyosati va davlat organlarida ochiqlikni ta'minlash masalalari qo'mitasining 2024-yil 1-fevraldagi 12-sonli bayonnomasi). Natijada qo'mita tomonidan 2023-2024-yillarda o'tkazilgan tadbirlarning mazmun-mohiyati va sifati yaxshilangan hamda xalqimizning ma'naviy taraqqiyotiga oid ilmiy materiallar bilan boyishiga erishilgan;

shuningdek, "Boburnoma" asarining aksiologik qirralari tizimli tahlili asosida diniy va dunyoviy bilimlarni o'zaro uyg'unlashtirish orqali yaratilgan noyob falsafiy sintezi, uning diniy bag'rikenglik, madaniyat va dinlarning o'zaro muloqoti, hamjihatlik g'oyalarining Sharq falsafasidagi o'rni hamda zamonaviy ijtimoiy-falsafiy dunyoqarash rivojida ahamiyati ochib berilganligiga oid xulosalardan O'zbekiston Respublikasi madaniyat vazirligi tomonidan milliy madaniy va ma'naviy merosni asrab-avaylash hamda ko'paytirish, xalqimizning ma'naviy-axloqiy va madaniy darajasini yanada yuksaltirish bilan bog'liq faoliyatida keng foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi madaniyat vazirligining 2024-yil 15-fevraldagi 04-12. 05-891-sonli ma'lumotnomasi). Natijada O'zbekiston Respublikasi madaniyat vazirligi tomonidan ushbu yo'nalishda rejalashtirilgan va o'tkaziladigan tadbirlar ko'lamining kengayishi, ilmiy-falsafiy jihatdan boyishi va ko'p millatli xalqimiz orasida Mirzo Boburning millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik kabi g'oyalarini keng targ'ib va tashviq etilishiga yordam bergan;

shu bilan birga, Mirzo Boburning badiiy-estetik qarashlari va axloqiy ta'limotida antropotsentrik yondoshuv ustovorligi aniqlanib, inson hayoti, erkinligi, baxt-saodati, ma'naviyati, axloqi va ma'rifati haqidagi qarashlarining ma'naviy qadriyatlar tizimi evolyutsiyasidagi ahamiyati hamda uning gumanistik-ma'rifiy g'oyalarining Sharq va G'arb madaniyatlari muloqotidagi germevtik vazifasi dalillanganligiga oid yangiliklaridan Respublikamiz ta'lim tizimida, shu jumladan, o'rta umumta'lim maktablarida o'quvchi yoshlar orasida olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlarda keng ko'lamli ravishda foydalanildi (O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2024-yil 3 oktabrdagi 04-37-2863-sonli dalolatnomasi). Natijada dissertatsiyada ilgari surilgan taklif, tavsiyalar va xulosalar Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish jarayonida xalq farovonligi, yosh avlod tarbiyasi va ularda vatanparvarlik tuyg'usini mustahkamlashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 13 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida bayon etilgan hamda aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 33 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola (8 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, asosiy matn 143 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, mavzuning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalarining qisqa mazmuni bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi ***“XV-XVI asrlarda Movarounnahr va Hindistonda ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy taraqqiyot: o'zaro ta'sir va aloqalar”*** deb nomlangan bo'lib, ushbu bobda Temuriylar sulolasining XV-XVI asrlarga kelib o'ziga xos obyektiv va subyektiv sabablarga ko'ra tanazzulga yuz tutishi, bu sulola o'rnini esa Shayboniyxon boshliq o'zbek xonlari sulolasi va davlati egallay boshlashi bilan bog'liq ijtimoiy-siyosiy jarayonlar tarixiy-xronologik tartibda manbaalar asosida tahlil qilingan. Shuningdek, Shayboniyxonning o'z sulolasi davlatini tuzib, temuriylar qo'lidan hokimiyat, hukmdorlikni tortib olishining XV asr oxirida Markaziy Osiyo, Turkiston miqyosida obyektiv tarixiy va subyektiv omillardan iborat geopolitik shart-sharoitlari ilmiy asoslangan.

Yu.Bayur o'zining “Temur o'g'illari va Bobur haqida maxsus tarixiy tadqiqot”ida¹ Temuriylar markazlashgan davlatining Shayboniylar tuzgan markazlashgan davlatiga ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va ma'naviy-mafkuraviy vorisiy o'sib o'tish jarayonini aks ettiruvchi hamda Mirzo Bobur ijtimoiy-siyosiy dunyoqarashi va faoliyatining tadrijotini quyidagicha davrlashtirishni taklif etgan edi:

I. Mirzo Bobur Farg'ona hamda Samarqand podshohi - 1494-1504 yillar;

II. Mirzo Boburning Kobul, Afg'oniston hukmdori sifatida Turkistonni qaytarib olish uchun kurash davri - 1505-1514 yillar;

III. Mirzo Boburning Kobul, Afg'oniston hukmdori sifatida Hindistonni qo'lga kiritish uchun kurashlari davri - 1515-1526 yillar;

¹ Bayur Y. Temur'un ogullarinun ve Babur hakkinda Tarixi uzeti. - S. 72-83.

IV. Mirzo Bobur Kobul, Afg'oniston va Shimoliy Hindiston podshohi, uning "Buyuk mo'g'illar saltanati"ga asos solish davri - 1526-1530 yillar.

Bizning fikrimizcha, Yu.Bayurning ushbu davrlashtirishi Mirzo Boburning hayot yo'li, ijtimoiy-siyosiy faoliyati va dunyoqarashi tadrijotining real tarixiy jaryonalarini izchil manbaviy to'g'ri, tarixiy xolis va adekvat aks ettiradi. Shu ma'noda bunday davrlashtirish ko'pchilik boburshunoslar, A.Beveridj, J.Leyden, U.Erskin hamda S.Azimjonovalarning tadqiqotlari xulosa, natijalari bilan o'zaro mos va uyg'un ekanligi dissertatsiyada ilmiy asoslangan.

Temuriylar sulolasi uchun halokatli, Shayboniylar uchun esa yangi davlat, yangi sulolaga asos solingan og'ir bir shart-sharoitlarda, Mirzo Bobur ilojisizlikdan, avval Temuriylarning Balx, Termiz, Hirot, Xuroson va Qandahordagi hukmdorlariga bir necha bor murojaat qilishga, ularni yordamga chaqirishga, Shayboniixon futuhotlariga chek qo'yish uchun unga qarshi ittifoq bo'lib kurashishga ularni da'vat etishga majbur bo'lgan edi. Ammo Temuriylar tarixi ijtimoiy-siyosiy fojeasining chuqurligi, keng ko'lamliligi shunda ediki, mazkur mintaqada siyosiy-harbiy ahvol Turkistondagidan ham og'ir o'nglab bo'lmas darajaga kelib qolgan edi. Shayboniixonning bu qadar tez va shiddatli yurishlari barcha Temuriylarni esankiratib, ularni vahimaga solib qo'ygan edi. Buni Mirzo Bobur "Boburnoma" asarida quyidagicha yaqqol va lo'nda ifodalagan: Ushbu fursatlar Sulton Husayn mirzodin Badiuzzamon mirzoga va manga hamda Hisravshohg'a va Zunung'a bir mazmun bila uzun-uzoq nishonlar keldi, ul nishonlar, bu tarihqacha mendadur. Mazmuni bu erdikim: Sulton Axmad mirzo va Sulton Mahmud mirzo va Ulug'bek mirzo ul og'a-inilar ittifoq qilib yuruganda men Murg'ob yoqasini berkittim. Mirzolar yovuq etib, hech ish qila olmay yondilar. Holo ham agar o'zbek mutavajjiq bo'lsa, men Murg'ob yoqasini berkitay, Badiuzzamon mirzo Balx va Shaburg'on va Andxud qo'rg'onlarig'a mazbut, kishilarini qo'yub, o'zi Gurzvon va Darai Zangda ul ko'histonni berkitsun.

Mening bu navohiga (ya'ni Termiz, Balx, Kobul, Xurosonga) kelgan xabarim borib edi. Manga ham etib edikim: "Sem Kohmard va Ajarda ul ko'hpoyani berkitib, Hisravshoh Hisor va Qunduz qo'rg'onlarida e'timodiy kishilarini qo'yub, o'zi va inisi Vali Badaxshon va Xatlon tog'larini berkitsunlar. O'zbek ish qila olmay yong'usidur.

Sulton Husayn mirzoning bu xatlari mujibi noumidlik bo'ldi. Ne uchunkim, Temurbekning yurtida bu tarixda andin uluqroq podshoh ham yosh va ham viloyat va ham cherik bila yo'q edi. Andoq ko'z tutulur edikim, payopay elchilar va talochilar jald va qadog'a bila kelib, mundoq hukmlar kelturgay edikim: Tirmiz va Kilif va Karki guzarlarida kema muncha yasang, ko'pruk asbobi bu miqdor tayyor qiling, yuqqori To'qqiz o'lum guzarlarni yaxshi ehtiyot qiling, to bu necha yil o'zbek tafriqasidin dilshikasta bo'lg'an ellarning ko'ngli qaviy bo'lub, umidvor bo'lg'aylar edi.

Sulton Husayn mirzodek Temurbek o'rnig'a o'lturg'on ulug' podshoh g'animning ustiga yurumakni demay, er bekitmakni desa, el va ulusqa ne umudvorliq qolg'ay?"¹.

¹ Bobur Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. – Toshkent: IJOD-PRESS, 2020. – B. 171.

Shuningdek, ushbu bobda temuriy hukmdorlar davridagi madaniy hayot, ular o'rtasidagi o'zaro hamkorlik aloqalari-iqtisodiyot, ijtimoiy va ma'naviy hayot, ilmfan, madaniyat, diniy, badiiy-axloqiy va ijtimoiy-siyosiy fikrlar tahlil qilingan.

Markaziy Osiyo va boburiylar davlatlarida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, tarixiy va ilmiy-madaniy sohalaridagi kommunikativ jarayonlar keng ko'lamli hamda murakkab xarakter kasb etadi. Bu masala I.Nizomiddinov va M.Nuriddinov kabi tadqiqotchi olimlarimizning ilmiy ishlarida yoritib berilgan¹. Shuni nazarda tutib, biz dissertatsiyaning ushbu bobida bu xududlarda joylashgan davlatlar o'rtasidagi kommunikativ jarayonlarni quyidagi shartli tarzda ajratilgan muammolar shaklida ko'rsatib o'tishni lozim topdik:

1. Bu davlatlar, bekliklar o'rtasidagi o'zaro harbiy-siyosiy kelishmovchiliklar, nizolar, urushlar va ittifoqchiliklar;
2. Ular orasidagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zaro ta'sir va aloqalar;
3. Ilmiy-madaniy, texnikaviy farqlar, hamkorlik va o'zaro ta'sirlar;
4. Diniy-tasavvufiy o'zaro ta'sir va aloqalar.

Shuningdek, ushbu bobda o'sha davrda Shimoliy Hindistondagi mayda davlatlarning iqtisodiyoti, qishloq xo'jaligi, turmush tarzi, o'zaro munosabatlari, xalqning milliy qadriyatlari, sultonlar, amirlar, hukmdorlarning tarixiy, harbiy-strategik ahvoli kabi masalalar yoritib berilgan.

Dissertatsiyada Mirzo Boburning hayoti va ijodi, dunyoqarashi, ilmiy-ma'naviy hamda ijtimoiy-siyosiy faoliyatining rivojlanishida, tasavvuf, xususan, Naqshbandiya tariqatining buyuk piri-murshidlari Xoja Ubaydulloh Axror Valiy, Muhammad Qozi Xojagi Kasoniy va boshqalarning o'rni hamda roli asoslab berilgan.

Ma'lumki, Shayboniyxon nafaqat Boburning, balki butun Temuriylar sulolasining dushmanidir. Dissertatsiyada Mirzo Boburning adolatli, aqlli, uzoqni ko'ra oladigan hukmdor, davlat rahbari va jasur sarkarda sifatida garchi nafaqat o'zining, balki butun Temuriylar saltanatining umumiy dushmani bo'lsa-da Shayboniyxon shaxsiga, uning xaqiqiy hukmdorlarga va sarkardalarga xos sifatlariga holisona ijobiy munosabati tarixiy manbaalar asosida obyektivlik tamoyili nuqtayi nazaridan tahlil etilgan.

Bundan tashqari, tadqiqotda Mirzo Bobur falsafiy dunyoqarashi, diniy-tasavvufiy qarashlarining g'oyaviy, ijtimoiy-gnoseologik manbai, ildizlari ham aks etgan. Boburning dinga munosabatida uning rasmiy "Ahli Sunna val jamoa"ga e'tiqodida sobitqadam hanafiy-sunniy musulmon hukmdor bo'lganligini asoslovchi faktik materiallar keltirib o'tilgan.

Dissertatsiyada yuqoridagi tadqiqot ma'lumotlari asosida Mirzo Boburning muayyan ma'noda passionar shaxs ekanligini, shuning uchun ham butun insoniyat ilg'or afkor ommasi uning nomini Aleksandr Makedonskiy, Yuliy Tsezar, Chingizxon, Amur Temur, Napoleon Bonapardlar bilan bir qatarga qo'yishi bejiz emasligi alohida ta'kidlab o'tilgan.

¹ Bu haqda mufasssalroq qarang: Низомиддинов И. XVI-XVII асрларда Ўрта Осиё ва Ҳиндистон муносабатлари. – Тошкент: Фан, 1966; Нуритдинов М. Юсуф Қорабоғий ва Ўрта Осиёда XVI-XVII асрлардаги ижтимоий-фалсафий фикр. – Тошкент: Фан, 1991.

Dissertatsiyaning **“Mirzo Bobur ilmiy-falsafiy, ijtimoiy-siyosiy qarashlarining falsafiy-tarixiy aspektlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida Mirzo Boburning davlat, siyosat, idora va boshqaruv usullari, harbiy-siyosiy tajribasi haqidagi qarashlarining falsafiy-tarixiy tadrijoti (evolyutsiyasi) tahlil etilgan hamda uning tashqi siyosati va diplomatiyasining tarixiy-falsafiy reduksiyasi amalga oshirilgan.

Albatta, Mirzo Bobur butun hayotini ilmiy faoliyatga bag‘ishlagan odam emas edi. Uning ijtimoiy mavqeyi ham, nasliy kelib chiqishi ham buni to‘la istisno qilar edi. Boshqacha qilib aytganda, Mirzo Bobur o‘zining butun umrini amaliy siyosatga va kurashga bag‘ishlagan dovyurak, mard sarkarda, hukmdor va podshoh edi. Shu sababli bizda Mirzo Boburning biron-bir faylasuf yoki siyosatshunos qo‘lida o‘qib, fanning ushbu sohalariga bag‘ishlangan asarlar yozganligi haqida ma‘lumot yo‘q.

Lekin u o‘zining qisqa umri davomida qoldirgan badiiy-ilmiy merosi, ayniqsa, “Boburnoma”, “Mubayyin”, fathnoma va farmonlari uning ijtimoiy-siyosiy hamda falsafiy qarashlari to‘g‘risida muayyan xulosalarga kelish imkonini bera oladi.

Avvalo, Mirzo Boburning hokimiyat, hukmdorlik, podshohlikning mazmun-mohiyati, vazifalari va hokimiyatning kelib chiqishi, tabiati haqidagi qarashlariga to‘xtalib o‘tsak. Mirzo Boburning hokimiyatning kelib chiqishi, tabiati, mohiyati ma‘nosi, vazifalari haqidagi qarashlarini umumlashtirib, u, umuman olganda, arab-musulmon jamiyatidagi yetakchi, rasmiy “Axli Sunna va Jamoa”ning hanafiya mazxabi imomlari Fahriddin Qozixon O‘zgandiy, Movardiy, Qozi Bayzoviy va Marg‘inoniylar asoslab bergan davlatchilik konsepsiyasini musulmon davlatchiligi an‘anasiga ko‘ra yaxshi egallagan edi, degan xulosaga kelish mumkin.

Mirzo Bobur Xoja Ahrorning ruhiy madadi, shafe‘ligi tufayli podsho bo‘lganligi va boshqa mazmundagi e‘tiroflari Bobur, asosan, davlat hokimiyatining manbasi xudo ekanligi, hokimiyatning asli mohiyati va tabiati bu adolat uchun kurash ekanligi haqidagi o‘rta asr diniy-ilohiyotchi konsepsiya tarafdori bo‘lganligi to‘g‘risidagi xulosaga kelish mumkin¹. Zero, Uvaysiy Piri-Murshidi Xoja Ahror Valiy ham ayni shu konsepsiya tarafdori edi. Bu uning quyidagi so‘zlarida ta‘kidlanadi: “Ammo bizga boshqa ma‘suliyat, ya‘ni musulmonlarni zolimlar zulmidan himoya qilish vazifasi yuklatilgan”².

Boburning davlat qurish, uni idora etish va boshqarish, harbiy tashkilot to‘g‘risidagi qarashlarining Fahriddin Qozi Xon O‘zgandiy, Movardiy va Qozi Bayzoviylar, Marg‘inoniylar asoslab bergan rasmiy Ahli Sunna va jamoa konsepsiyasiga asoslanishini Mirzo Boburning “Mubayyin” yoki “Fiqhi Boburiy” nomli asaridan keltirib, tahlil etganimiz quyidagi dalillarda ko‘rinadi:

Davlat qurish uchun sog‘lom, bekamu-ko‘st aql-zakovat, irodali imom zarur: “Olam ahli aro imom kerak”, bu imom, albatta, Qurayshiylardan bo‘lishi kerak va uning nomi “Podshoh”, shariatda esa “Imom” yoki “Halifa”dir. Xalqning unga toat qilishi vojib. Mirzo Bobur o‘zining “Mubayyin” asarida yozgan bir she‘rida ilk islomda bo‘lmagan, islom halifasi faqat Quraysh xonadonidan bo‘lishi shart emas,

¹ Саидов А., Тожионов У., Одиқориев Х. Давлат ва ҳуқуқ асослари. Дарслик. – Т.: Шарқ, 2002. – Б. 10.

² Валихўжаев Б. Хожа Ахрор тарихи. – Т.: Ёзувчи, 1994. – Б. 69.

hatto kofir bo'lsa-yu, lekin adl-insof qilib davlat va jamiyat farovonligini ta'minlasa hatto g'ayridin bo'lsa ham, uning hokimiyati tan olinishi, e'tirof etilishi, unga tobelik vojibdir, degan dunyoviy davlat, ijtimoiy adolat, adli-insofni birinchi o'ringa qo'yuvchi g'oyani ilgari surgan"¹.

Demak, Bobur nazarida podsho, amir, imom, halifa, sulton, hoqon va shu kabi nomlar bilan ataladigan, davlat tuzadigan shaxs, ya'ni davlat boshlig'i bir qator talablarga javob berishi, siyosiy iroda va sifat, qobiliyat malakalarga ega bo'lishi lozim. Boburning bu siyosiy qarashlari, davlat qurish tashabbuskori, davlat hokimiyatining tashuvchisi (substrat, subyekti) haqidagi fikrlari, uning qator kuzatish, xulosalarida o'z ifodasini topganki, bular siyosatshunoslik uchun beqiyos amaliy qo'llanma vazifasini o'taganligi shubhasiz.


Mirzo Bobur umrining oxirida imperiyani idora qilish va boshqarish yukini o'zi hamda Humoyun zimmasidan yengillatish va ehtimolki valiahd shahzodalar o'rtasidagi kelgusida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan mojoro-janjallar, toju-taxt da'vosi, urushlarning oldini olish maqsadida tasarrufidagi yurtlarni o'g'illariga bo'lib bergan edi.

Biz dissertatsiya mavzusi yuzasidan aholi o'rtasida sotsiologik so'rovnoma o'tkazdik. Ushbu masala bo'yicha respondentlarning javoblarini ilmiy tadqiqotimiz yuzasidan o'tkazilgan so'rovnoma natijalarida (839 nafar respondent) ham ko'rishimiz mumkin. Unga muvofiq, "Mirzo Bobur umrining oxirida o'ziga tegishli mulklarni o'g'illari o'rtasida taqsimlab berganmi?" – degan savolga respondentlarning 42 % (352 nafari) – "Ha, taqsimlab bergan", 12 % (101 nafari) – "Yo'q, taqsimlab bermagan", 25 % (210 nafari) – "Barcha mulklarini katta o'g'li Xumoyunga qoldirgan, boshqa o'g'illari uning qaramog'ida edi", 21 % (176 nafari) – "Bu haqida ma'lumotga ega emasman", qabilida javob berishgan (1-rasmga qarang).

¹ Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Мубаййин. – Тошкент: Халқ мероси, 2000. – Б. 19-21.

Mirzo Bobur umrining oxirida oʻziga tegishli mulklarni oʻgʻillari oʻrtasida taqsimlab berganmi?

839 javob



1-rasm. Respondentlarning “Mirzo Bobur umrining oxirida oʻziga tegishli mulklarni oʻgʻillari oʻrtasida taqsimlab berganmi?” – degan savolga javoblari.

Mirzo Bobur davlatining eng yuqori siyosiy tashkiloti Oliy davlat kengashi, yaʼni Chorga edi. Uning tarkibi esa, asosan, quyidagilardan iborat edi:

1) hukmdorga bevosita boʻysungan, uning va Bek Atka tasarrufidagi ichki Beklar¹, amir-ul-umarolar;

2) umuman olganda, Oliy hukmdorga boʻysundirilgan boʻlsa-da, amalda bevosita Bek Atkaga boʻysunuvchi viloyat hokim-beklari, harbiy qoʻmondonlar, harbiy tashkiliy taʼminot, qurol-aslaha, oʻq-dori, oziq-ovqat, yem-hashak, urush ulovlari, axborot yigʻish, yetkazish bilan shugʻullanuvchi amirlar, harbiy garnizonlar joylashtirilgan shahar, qalʼalaridan iborat Tashqi Beklar², amir-ul-umarolardan iborat edi.

Shu jihatdan, dissertatsiyada Mirzo Bobur armiyasini tashkil etish prinsiplari (9 asosiy prinsiplari) hamda undagi innovatsion oʻzgarishlar tahlil etildi.

Shuningdek, dissertatsiyada Mirzo Bobur davlati tashqi siyosati va diplomatiyasi masalasi tahlil etildi. Mirzo Bobur davlatining tashqi siyosati va diplomatiyasi oʻz rivojida quyidagi oʻziga xos tadrijiy taraqqiyot bosqichlarini bosib oʻtgan:

I. 1494-1506 yillar - Mirzo Boburning Fargʻona davlati tashqi siyosati va diplomatiyasi.

II. 1506-1519 yillar - Mirzo Bobur tashqi siyosati va diplomatiyasi taraqqiyotining ikkinchi katta davri.

¹ Bobur Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. – Toshkent: IJOD-PRESS, 2020. – B. 75, 80, 81, 100.

² Shu asar. – B. 75.

III. 1520-1530 yillar – bizning fikrimizcha, Mirzo Bobur tashqi siyosati va diplomatiyasi taraqqiyotining uchinchi katta davrini tashkil etadi. Bu davr Bobur tashqi siyosati va diplomatiyasidagi so‘nggi balog‘at bosqichi edi. Bu bosqichlarning har birini davr taqozosiga ko‘ra va mazkur vaziyatlardan kelib chiqqan holda hal qilinishi lozim bo‘lgan o‘z muammolari hamda vazifalari mavjud bo‘lgan. Biz ushbu tadqiqot ishimizda yuqorida ko‘rsatilgan Bobur tashqi siyosati va diplomatiyasi tadrijiy taraqqiyot bosqichlarining har biriga xos xususiyatlar, ularning iqtisodiy, siyosiy, ma‘naviy, mafkuraviy, diniy va h.k. muammolari hamda yechimlarining tahlilini keltirib o‘tdik.

Dissertatsiyaning **“Mirzo Bobur ijtimoiy-siyosatga oid qarashlarining falsafiy-gnoseologik tahlili”** deb nomlangan uchinchi bobida Mirzo Bobur davlat boshqaruviga oid siyosatining ijtimoiy-falsafiy asoslari, uning qonunchilik va sotsial adolatga oid qarashlarining falsafiy mohiyati hamda Mirzo Boburning millatlararo va dinlararo munosabatlarga oid qarashlarining falsafiy, mafkuraviy asoslari kabi masalalar muhokama markaziga qo‘yilgan.

Dissertatsiyada Mirzo Bobur o‘zining katta o‘g‘li Xumoyunga qoldirgan “Vasiyat”ning ayrim jihatlari kengroq ko‘rib chiqilgan. “Vasiyat”da davlat ijtimoiy siyosatining o‘ta nozik tomonlari xaqida fikr yuritilgan. Unda ijtimoiy ta‘minot, davlat xavfsizligi, milliy-etnik, diniy-konfessional masalalarda adolatli, insonparvar va e‘tiqodiy bag‘rikenglik, xolislik, sabr-toqatlilik munosabatlarida bo‘lish zarurligi alohida ko‘rsatilgan. Mazkur “Vasiyat”ning barcha bandlari o‘zining mazmun-mohiyatiga ko‘ra hozirgi zamonaviy taraqqiy etgan davlatlar qonunlarida nazarda tutilgan holatlarga e‘tiborimizni qaratadi. Ular hozirgi paytda ham millatlar va dinlararo munosabatlarni tartibga solishda o‘ta muhim ahamiyatliligi bilan alohida ajralib turadi. Bundan tashqari, ushbu asar oqilona va ezgu maqsadlar-insoniylik, jamiyatda adolatni ro‘yobga chiqarish, zo‘ravonlik va nohaqlikka qarshi turish, jamiyat a‘zolarining hammasiga birdek odilona munosabatda bo‘lish, ularni teng ko‘rish, din, millat ajratmaslik kabi ezgu g‘oyalardan umumiy maqsad yo‘lida samarali foydalanishni nazarda tutgan holda tuzilgan.

O‘rta asr arab-musulmon jamiyatida konstitutsion-huquqiy maqomga hamda jamiyat uchun yuksak muqaddas, barchaga barobar hayot, ma‘naviyat va siyosat asosiga qo‘ysa bo‘ladigan, ayniqsa, yozma yodgorlik ko‘rinishidagi obida-hujjatlar saqlanib qolingan va ushbu tadqiqotimizda ulardan uchasi keltirilgan.

Birinchisi, Toxiriylar sulolasi asoschisi Amir Toxir ibn al-Xusaynning o‘z o‘g‘li Abdulloh ibn Toxirga Risola-vasiyatnomasi (IX asr)¹. Ikkinchisi-Xorazmshoh Takashning Jand Voliysiga yuborgan ko‘rsatma-xati bo‘lib, bu hujjat Xorazmshoh Takashning Bosh Munshiysi bo‘lib xizmat qilgan Muhammad al-Bag‘dodiy tuzgan turli davlatlararo elchilik yozishmalari, farmoyish, yorliqlar, turli noma, xatlar to‘plamidan iborat “At-tavassul ila tarassul” to‘plamidan bizgacha


¹ Амир Тохир ибн ал-Хусайн. Послание Тахира ибн ал-Хусайна к сыну своему Абдаллаху ибн Тахиру (ruscha tarjiması A.E.Shmidtņiki) // Бюллетень САГУ. – Самарканд, 1925. – С. 8-13.

etib kelgan¹. Uchinchi hujjat Bobur va boburiylar davlati, jamiyati ijtimoiy siyosati yutuqlarining toji, uning o‘zidan keyingi avlodlariga qoldirgan o‘ziga xos konstitutsion qonunlar, qadriyatlar maqomiga ega bo‘lgan Mirzo Boburning o‘g‘li Xumoyunga “Vasiyati” (1528-yil)dir. Ushbu hujjatning nafaqat boburiylar davlati uchun, balki keyingi davrlar davlatlari boshqaruvida ham o‘ta muhim ahamiyat kasb etganligini yuqorida ta’kidlaganimiz ilmiy tadqiqotimiz yuzasidan o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalarida ham ko‘rishimiz mumkin.

Ushbu so‘rovnomada “Mirzo Bobur to‘ng‘ich o‘g‘li Humoyunga “Vasiyat” qoldirganmi?” – degan savolga (835 nafar) respondentlarning 60 % (501 nafari) – “Ha, qoldirgan”, 16 % (134 nafari) – “Yo‘q, qoldirmagan”, 24 % (200 nafari) – “Bilmayman” qabilida javob berishgan (2-rasmga qarang).

Mirzo Bobur to‘ng‘ich o‘g‘li Humoyunga «Vasiyat» qoldirganmi?

835 ovoz



2-rasm. Respondentlarning “Mirzo Bobur to‘ng‘ich o‘g‘li Humoyunga “Vasiyat” qoldirganmi?” – degan savolga javoblari.

Yuqorida nomlari zikr etilgan tarixiy hujjatlar mazmun-mohiyati jihatidan o‘zaro yaqin bo‘lib, ularni birlashtirib turuvchi asosiy mezon adolat, jamiyatda mavjud bo‘lgan barcha qatlamlarni ijtimoiy himoya qilish, ijtimoiy adolatni qaror toptirish va davlatni adlu-insof bilan boshqarish masalasidir.

Ma’lumki, o‘rta asrlarda ko‘pchilik Sharq mamlakatlarining davlat boshqaruvida “Amri podshohi vojib”, ya’ni Podshohning amri bajarilishi mutlaqo shart, zarur, – degan diniy-shar’iy aqidaga asoslanuvchi mutlaq monarxiya davlat tuzumi shakllangan. Unga muvoffiq alohida olingan bitta shaxsning, ya’ni podshohning irodasi har qanday hokimiyat, shu jumladan, qonunchilik hokimiyatining birdan-bir manbai deb qaralgan.

Bu haqda Abdulhay Habibiy quyidagi o‘z umumlashtiruvchi xulosalarini bergan edi: “Bobur borgohida har bir ma’mur uning qo‘shuniga shomil bo‘lib, Podshoh esa nomahdud (cheklanmagan) bir qudrat egasi deb tanilar edi.

¹ Qarang: Мухаммад ал-Бағдодий. Ат-таваccул ила тарассул. А.А.Семенов. К вопросу об этническом и классовом составе северных городов империи Хорезмшахов в XII вв. н.э. (По актам того времени). «Известие отделения общественных наук АН Тадж. ССР». Выпуск. 2. 1952. - С. 17 - 26.

